

Date: 11<sup>th</sup> December-2025

## O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI GIDRONIMLARNING NOMLANISH TAMOYILLARI

**Sharopova Matluba Isroilovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti

[sharopovamatluba1985@gmail.com](mailto:sharopovamatluba1985@gmail.com)

**Annotatsiya.** Nomshunoslik (ismshunoslik, toponimika) har bir xalq tarixi, etnografiyasi larning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bog'lanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan o'rni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog'liqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq holda, ma'lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur maqolada O'zbekiston hududidagi joy nomlari toponimlar, gidronimlarning nomlanish tamoyillari, ularning siyosiy mohiyati, o'zbek gidronimlarining o'rganilish darajasi, va uning asosiy muammolarini, o'zbek gidronimlari orasida o'z va o'zlashgan qatlam, gidronimlarining grammatik strukturasi va yasali xususiyatlarini, O'zbekiston hududidagi ayrim makrogidronimlar va mikrogidronimlarning etimologik jihatlarini tahlilga tortdik.

**Kalit so'zlar:** Onomastika, toponimika, gidronim, gidronimika, gidronimiya, indikator, sodda gidronimlar, murakkab gidronimlar, affiksatsiya, kompozitsiya.

Joy nomlarning atoqli nomi sanalgan toponimlar qadimgi zamonlardan to hozirga qadar insoniyatning ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq shonli tariximiz nishonasi bo'lgan toponimlarni tadqiq etish juda qadimgi davrlardan boshlangan. O'tmish ajdodlar va boshqa olimlar hozirgi O'rta Osiyo, unga tutash hududlar, shu jumladan, vatanimizdagi toponimlar to'g'risida muhim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

O'zbek tilshunosligida joylarga atab qo'yilgan nomlardan iborat toponimlar hududning tabiiy-geografik sharoiti, mahalliy aholining etnik qatlami, kundalik turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, milliy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettirishi bilan alohida e'tiborni tortib kelmoqda.

Onomastik leksika tarkibida toponimik lug'atni tashkil etuvchi bunday nomlarning yaxlit tizim sifatida leksik-semantik xususiyatlari, nominativ, kommunikativ, uslubiy vazifalari bilan xalq va til tarixi uzviy bog'liqligi, o'zida insonlarning yurtsevarlik tuyg'usini namoyon etishi kuzatilgani bejiz emas.

Respublikamiz joy nomlarini o'rganishda o'zbek olimlarining qo'shgan hissalar ham ulkandir. Y.G'.G'ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, H.Hasanov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ishayev, S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, R.Qo'ng'urov, B.O'rinboyev kabi olimlarning bu sohadagi ishlari maqtovg'a loyiqdir. O'zbekiston toponimlarini keng ko'lamda o'rganish ishlari, asosan, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Keyingi o'n yilliklar ichida bu sohada katta ishlar qilindi. 60-yillarga kelib o'zbek tilshunosligida atoqli ot materiallari monografik tarzda o'rganila boshlandi.



Date: 11<sup>th</sup> December-2025

Bular qatorida joy nomlarining bir qismi hisoblangan gidronimlar ham e'tibordan chetda qolmagan.

Gidronim so'zi (yunoncha **hudor** – suv + **onoma** – atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) ob'ektlarning atoqli oti, toponim turi ma'nolarini bildiradi. Respublikamiz hududida **daryo, soy, ariq, kanal, jilg'a, irmoq, buloq, sharshara, sardoba** kabi suv ob'ektlari juda keng tarqalgan. Gektar yer maydonini sug'orish uchun xizmat qiladigan suv ob'ektlarining barchasi o'z atoqli nomi – gidronimiga ega.

O'zbek tilida gidronimlarning quyidagi tiplari mavjud:

1. **Daryo nomlari:** *Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Norin, Oqdaryo, Qoradaryo, To'polon daryo* va boshqalar

2. **Soylar nomi:** *Kosonsoy, Rezaksoy, Tentaksoy, Chortoqsoy, Shirinsoy, Bodoqsoy, Boysunsoy, Bulbulsoy, Buloqsoy, Burgutsoy, Gushsoy* va boshqalar;

3. **Ariqlar nomi:** Ariqlarning nomlanish motivlari turlicha bo'lib quyidagi holda nomlangan.

➤ **ariqni qazdirgan yoki unga egalik qiluvchi shaxs nomiga nisbat beriladi.**

*Boltaqora arig'i, Roziqxo'ja arig'i, Xo'jahasan arig'i* (Shofirkon tumani);

➤ **ariq unga egalik qilgan biror jamoa, etnos, nomi bilan yuritiladi:**

*Beklar arig'i, Do'rmon arig'i, Chig'atoy arig'i* (Shofirkon tumani), *Kerayitariq, Xo'jaariq* (Nurota), *Boyto'pi arig'i, Qipchoqariq, Qirg'izariq, Burqutariq, Boyto'pa arig'* (Boysun tumani);

➤ **ariq oqib o'tadigan joy, hudud nomi bilan yuritiladi:** *Gumbaz arig'i, Tolipoya arig'i, Oyimchorbog' arig'i* (Shofirkon tumani), *Do'ngariq* (Nurota), *Qumariq, Qo'rg'onariq, Isfaraarig'i* (Marg'ilon);

➤ **ariq oqib o'tadigan joyning xususiyatiga ko'ra nomlanadi:** *Ko'ndalang ariq, Past ariq, Do'ng ariq* (Nurota), *Jar ariq, Pastki ariq* (Marg'ilon), *Egri ariq* (Nurota tumani)

➤ **bir-biriga yaqin joylashgan ariqlarning miqdoriga ishora qiladi:** *Qo'shaqriq, Uchariq* (Nurota tumani);

➤ **ariqning sig'imi va hajmiga asoslanadi:** *Katta ariq, Ingichka ariq* (Marg'ilon tumani), *Shoh ariq, Katta ariq, Kichik ariq* (Nurota tumani);

➤ **ariqning qazilgan payti, vaqtini anglatadi:** *Eski ariq, Yangi ariq* (Nurota tumani), *Yangi ariq* (Marg'ilon tumani);

➤ **suvning ta'miga asoslanadi:** *Sho'r ariq* (Marg'ilon tumani) va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Gidrotoponimlar – bu daryolar, ko'llar, buloqlar, kanallar va boshqa suv havzalarining nomlari hisoblanib ular oddiy nomlar emas, balki geografik, tarixiy va madaniy ma'lumotlarni o'zida saqlovchi noyob manbalardir. Har bir gidrotoponim ortida qadimiy afsonalar, tarixiy voqealar, tabiiy xususiyatlar va xalqning o'sha joyga bo'lgan munosabati yashirin bo'ladi. O'zbek tilida gidrotoponimlar xalqning til va madaniy merosini aks ettiradi. Ular bizga o'tmishni tushunishga, ajdodlarimizning dunyoqarashi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini anglashga yordam beradi.



Date: 11<sup>th</sup> December-2025

O'zbek gidronimiyasi sohasidagi izlanishlar juda qadimiy va uzoq tarixga ega bo'lib S.Qoraev o'zining toponimik lug'atlarida toponimlar bilan birga juda ko'plab gidronimlarning ham izohini keltirgan. X.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Yer tili" (1977), "Geografik nomlar siri" (1985) kabi bir qancha asarlarida gidronimlar izohi masalasi ham o'rganilgan.

Masalan, olim *Tuyatortar kanali*, *To'palang daryosi*, *Ko'li Xubbon* singari gidronimlarning etimologiyasiga doir qiziqarli dalillarni keltiradi. N.Oxunov "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomliri sohasida **daryo nomlari** (*Amudaryo*, *Sirdaryo*, *Qoradaryo*, *Oqdaryo*, *Zarafshon* kabi), **suv omborlari nomlari** (*Kattaqo'rg'on suv ombori*, *Chorvoq suv ombori* kabi), **kanal nomlari** (*Janubiy Mirzacho'l kanali*, *Ulug'nor kanali*, *Narpay kanali*, *Log'on kanali* kabi), **soy nomlari** (*Ohaklisoy*, *Qizilsoy*, *Sho'ralisoy*, *Chodaksoy* kabi), **ko'l nomlari** (*Orqako'l*, *Devonko'l*, *Oqchako'l* kabi), **buloq nomlari** (*Qo'tirbuloq*, *Qayroqchibuloq*, *Beshbuloq*, *Oqbuloq* kabi), **ariq nomlari** (*Jiyda ariq*, *Sho'r ariq*, *Chinor ariq* kabi), **quduq nomlari** (*Toshquduq*, *Qizilquduq*, *Otquduq* kabi), **hovuz nomlari** (*Toshhovuz*, *Molhovuz* kabi), **zovur nomlari** (*Ko'k zovur*, *Qorayog' zovur* kabi), **to'g'on va quvur nomlari** (*Qumto'g'on*, *Beshquvur*, *Toshquvur* kabi) singari gidronimik ob'ektlarni tasnif etadi hamda bunday gidronimlarning ayrimlarini etimologik jihatdan talqin qiladi.

Masalan, *Bulung'ur* kanalining nomi asosida mo'g'ulcha so'z yotadi. Ya'ni **bulung'ur** so'zining ma'nosi **loyqa suv** demakdir. *Arashon buloq* gidronimining birinchi komponentidagi *arashon* so'zi sanskritcha bo'lib, "**shifobaxsh**, **iliq**" ma'nolarini bildiradi. Shunga ko'ra *Arashonbuloq* gidronimi "**shifobaxshbuloq**", "**issiqbuloq**" ma'nolarini ifodalaydi. *Ulug'nor* gidronimining ikkinchi qismida qo'llangan "**nor**" so'zi arabcha "**nahr**" (**daryo**) so'zining mahalliy aholi talaffuzidagi fonetik variantidir. Shunga ko'ra *Ulug'nor* gidronimi "**kattakanal**" ma'nosini bildiradi. Yoki *Sangzor* daryosi nomi tojikcha **sang** – **tosh** va o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi qo'shimchadan tarkib topgan bo'lib, "**toshli yer**, **toshloq**" ma'nosini ifodalaydi. N.Begaliev keyinchalik e'lon qilgan "Samarqand toponimiyasi" nomli asarining alohida bobi "Gidronimlar – suv nomlari demak" deb nomlangan. Bu asarda *Darg'om arig'i*, *Jo'yi Arziz*, *Obi Mashhad*, *Chorjo'y'i*, *Shahob arig'i*, *Korizquduq*, *Qo'shquduq* kabi gidronimlarning etimologiyasiga doir ma'lumotlar keltirgan. O'zbek gidronimiyasi bo'yicha ikkinchi yirik tadqiqot N.Uluqovning monografiyasi va doktorlik dissertatsiyasi bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, A.Muhammadjonov, M.Turdibekov, A.Otajonova kabi ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida ayrim gidronimlarning xususiyatlarga doir muhim ma'lumotlar berilgan. Masalan, T.Nafasov o'zining maqolalarida "**jili**", "**qashqa**" formantli gidronimlarning paydo bo'lishi, etimologiyasi haqida o'z kuzatishlarini bayon qilgan. A.Juvonmardiev "XVIII-XIX asrlarda Farg'onada yer-suv masalalariga doir" nomli asarida *Norin*, *Sirdaryo*, *Shahrixon*, *Dalvarzin*, *Andijonsoy* kabi bir qancha gidronimlarning shakllanishi haqida fikr bildirgan edi. Y.Qosimov esa Namangan vohasining sug'orilish tarixidan" nomli asarida o'sha viloyatdagi *Qalmiqariq*, *Bog'ish*, *Qurama*, *Mamay*, *Beshatmon*, *Ko'kjar* kabi tarixiy qabila, urug'nomlari bilan atalgan ariqlar, *Boyariq* (hozirgi Namangansoy),



Date: 11<sup>th</sup> December-2025

*Eshonbobokanali, Yangiariq, Mutagan, Xonariq* kabi boshqa o'nlab suv ob'ektlarining nomlanishi haqida fikr yuritilgan.

Gidronimlar ma'lum bir suv ob'ektlariga nom bo'lar ekan, bunda nisbiylik tamoyiliga ham amal qilinadi. Ya'ni bunga ko'ra gidronimik ob'ektlarning xususiyatlari o'sha gidronimlarda to'la o'z ifodasini topmagan bo'ladi. Masalan, Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida *Kattajilvon, Kichikjilvon* degan ariqlar bor. Bu ariqlar nomi tarkibidagi *jilvon* so'zi toponimdir. Bu ob'ektga yaqin bo'lgan ariqlarni nomlash uchun o'sha toponim oldidan *katta* va *kichik* so'zlari qo'llangan. Yoki *Janubiy Farg'ona kanali, Janubiy Mirzacho'l kanali* kabi gidronimlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Suv ob'ektlariga nom qo'yishda uning belgi, xususiyatlari asosida yuzaga kelgan ziddiyat yoki oppozitsiya ham inobatga olinadi. Masalan, *Shirinbuloq, Qo'tirbuloq* va boshqalar.

Gidronimlar shakl jihatdan **sodda-tub, sodda-yasama, qo'shma va birikmali xususiyatlarga** ega bo'ladi.

Masalan, *Qorasuv, Qoradaryo, Oqdaryo* kabi gidronimlar tarkibi ikki qismdan iborat qo'shma so'zlardir. Lekin shu bilan birga ayrim gidronimlarning tarkibiy tuzilishini hozirgi davrga ko'ra aniq belgilab bo'lmaydi. Masalan, Namanganda *Qarg'ali ko'l, To'ng'izo'ldi, Qorachig'ay* kabi ariq nomlari bor. Ularning shakllanishi, etimologiyasi haqida turli xil qarashlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston hududida juda ko'plab etnogidronimlar mavjud: *Xitoyariq, Farg'ona arig'i, Qirg'izbuloq, Qipchoq* ariq gidronimlari shular jumlasidandir. Bundan tashqari O'zbekiston hududidagi ayrim gidronimlar antropogidronim shaklida ham uchraydi: *Toshibo'arig'i, Jo'raxo'ja bulog'i, Jo'yimahmud, Jabborsoy* kabilar. Bundan tashqari gidronimlarning ayrimlari agrogidronimlar shaklidadir: *Xonariq, Xo'jaobod, Eshonariq* kabilar.

Gidronimlarning etimologiyasi xalq etimologiyasi bilan birga turli xil ilmiy-etimologik kuzatishlar bayon qilinganbo'li bunga, Farg'ona viloyatida *Qizariq* degan ariq bor. Bu gidronimning kelib chiqishiga aslida **qiz** so'zining boshqa ma'nosi – **“Baland tog'ning quyosh tushmaydigan joyi”** degan ma'nosi asos bo'lgan. *Qizariq* so'zi tarkibidagi birinchi komponent aslida **qizil** bo'lgan, keyinchalik bu so'z tarkibidagi **-il** qo'shimchasi tushib qolgan.

Gidronimlarning etimologiyasi tahliliga olimlar morfologik, derivasion, semantik, tarixiy va dialektalogik tamoyillarga asoslanib ish tutganlar. Masalan, *Rezaksoy* degan gidronim tarkibidagi **“rez”** so'zi **mayda ushoq joy** degan ma'noni bildiradi. *Tutak* kanalning nomi haqida ham turli xil qarashlar bor. Shulardan N.Rahmonning “O'zbekistonning ko'hna turkey run yozuvlari” nomli kitobida ta'kidlanishicha, bu gidronim *tutak-tutuk* so'zidan olingan bo'lib, **“harbiy ma'muriyat boshlig'i”** degan ma'noni bildiradi. N.Uluqov esa bu gidronimning kelib chiqishini fors-tojik tilidan o'zlashgan **to'tak** so'ziga bog'laydi. Uning ma'nosi **“paxtadan ip yigirishda ishlatiladigan qovoqnaycha”** dir deb o'z fikrini aytgan. Ayrim gidronimlar perifrazaviy nomlanish xususiyatiga ega. Masalan, badiiy va publitsistik uslubga oid matnlarda *Shimoliy Farg'ona kanali* – **Namangan vohasining hayot nahri** // *Namanganning hayot nahri, Katta Namangan kanali* – **Namangan vohasining kumushkamari, Kosonsoy suvombori** – **Tog' orasidagi dengiz,**





Date: 11<sup>th</sup> December-2025

Norin daryosi va Sirdaryo – *Farg‘ona vodiysining oltin kamari*, Narpay kanali – *Zarafshon vohasining oltin belbog‘i* kabi perifrazaviy nomlar bilan yuritiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki gidrotoponimlar bu nafaqat lingvistik jarayon, balki insoniyat tajribasining chuqur tushunchasi. Gidronimlar orqali yaratiladigan metaforalar, odamlarning ichki dunyosini, madaniyatini va tarixini aks ettirishga yordam beradi.. Gidronim tarkibli so‘zlar nafaqat suv ob‘ektlari haqida yangi fikrlarni ifodalashga yordam beradi, balki inson his-tuyg‘ularini, tajribalarini va madaniyatini ham aks ettiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, til va fikr rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Toponimlar tizimida gidronimlar uning tarkibiy qismi sifatida alohida ajralib turadi. Gidronimika keng ma’nodagi tabiiy suv obyektlari va suv inshooti nomlarini tadqiq etadi. Sun’iy va tabiiy, yirik va kichik suv obyektlari hamda suv inshootlarining atqli otlari tarkib jihatidan turlicha bo‘ladi. Masalan, sodda tarkibli gidronimlar, qo‘shma tarkibli gidronimlar, murakkab tarkibli gidronimlar kabi. O‘zbekiston hududida ham gidronimlarning bu kabi turlarini uchratish mumkin ekan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida suv obyektlarini nomlashda suv va suv obyektiga xos tabiiy, geografik, o‘zbek xalqiga xos tarixiy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlar va boshqa omillar e’tiborga olinganligini ko‘rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. S. Qorayev Toponimika - Toshkent. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006. B-38.
2. N.Uloqov O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniyatdigi Toshkent: Fan, 2008
3. A. Kuchkarov Gidronimlar va Ularning Semantikasi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti. 2010.-28-b.
4. N. Abdullaeva Til va Madaniyat: Gidronimlar Kontekstida. Samarkand: SamDU Nashriyoti. 2015 – 97-b.
5. O.T. Begimov. Janubiy O‘zbekiston o‘zlashgan toponimlarining tarixiylisoniy tadqiqi. Monografiya, Toshkent: Voris, 2020. – 103 b.
6. R.Sh. Bozorova Suv bilan bog‘liq joy nomlarining lisoniy qatlamlari tahlili //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 112-118.

